


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

**60811300 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash
texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining
malaka talablari**

Toshkent



ISHLAB CHIQLGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil «29» avgust dagi 5 - sonli yig‘ilishida ma‘qullangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi ing 2022 yil «09» 09 dagi 302 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim standarti.Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim yo‘nalishlarini va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy – uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		Bet
1.	<i>60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi</i>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	<i>60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi</i>	4
1.2.1.	<i>60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari</i>	4
1.2.2.	<i>60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari</i>	4
1.2.3.	<i>60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari</i>	5
1.2.4.	<i>60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari</i>	5
2.	<i>60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga talablar</i>	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	6
	Bibliografik ma'lumotlar	8
	Kelishuv varag'i	9

1. 60811300 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tasnifi

60811300 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi shakllarida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60811300 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi.

Malaka talabi *60811300 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha)* ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta‘lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma‘sul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor - o‘qituvchilari;

– ta‘lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta‘lim tashkilotini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

– oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60811300 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi

1.2.1. 60811300 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60811300 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha) bakalavriyat talim yo‘nalishi – “Qishloq xo‘jaligi” ta‘lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, yer, suv, energetik va moddiy - texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va dastlabki ishlash; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash jarayonlarini optimallashtirish, tayyorlangan, saqlangan va qayta ishlangan qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida texnik vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

1.2.2. 60811300 – Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, ishlab chiqarish boshqarmalari va boshqalar;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, qadoqlash, quritishga ixtisoslashtirilgan xo'jalik su'bektlari, ishlab chiqarish korxonalari, agroklasterlar, kooperatsiyalar;
- yer, suv, energetik va moddiy – texnika resurslari, meva-sabzavotlarni dastlabki ishlash texnologiyasi, qo'shimcha kimyoviy va biologik vositalar;
- texnik asbob uskunalari;
- qishloq xo'jalik tizimidagi ishlab chiqarish jarayonlari;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki qayta ishlash jarayonlari;
- ilmiy-tadqiqot jarayonlari;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va dastlabki ishlash korxonalari va tashkilotlarining boshqaruv tizimlari.

60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) yo'nalish bo'yicha bakalvriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalvriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tashkiliy-boshqaruv.
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot – tahliliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- loyiha-texnologik faoliyat;
- texnologik-ishlab chiqarish;
- tadbirkorlik.

1.2.4. 60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalvriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini dastlabki ishlashga tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish ;
- ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;
- xizmat ko'rsatish sohasida meyoriy- huquqiy hujjatlardan foydalana olish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va dastlabki ishlash bo'yicha servis xizmati ko'rsatish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo'yicha texnologlarga maslahatlar berish.

Axborot tahliliy faoliyatida:

- texnologik jarayonlarni bajarish sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;
- ilg'or texnologik jarayonlarni qo'llash;

- ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiyanomalar berish;
- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi qoidalarini ta'minlash.

Ilmiy - tadqiqot faoliyatida:

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- muammolarni hal etishga va qaror qabul qilishga tayyorgarlik, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sifatiga javobgarlik;
- respublika va xorijda chop etilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini dastlabki ishlashga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;
- ilmiy – tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan malumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etishda qatnashish.

Loyiha - texnologik va texnologik ishlab chiqarish faoliyatida:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash bo'yicha loyihalar tuzish mehnat jamoasi shakllantirish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;
- saqlash omborlari va qishloq xo'jalik mahsulotlarini dastlabki ishlash korxonalarini loyihalash uchun zaruriy tayyorgarlik;
- faoliyat natijalarini tahlil va sintez qilish, tashkil etish va rejalashtirish, baholash, fundamental, umumkasbiy va amaliy bilimlardan foydalanish qobiliyati va ularga tayyorgarlik;
- mustaqil ishlash qobiliyati, ish jarayonlarini identifikatsiyalash va mahoratdan foydalanish;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining halqaro va kasbiy standartlarni, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- soha doirasida yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- soha doirasida biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini dastlabki ishlashda mehnatni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring nazorat qilish;
- sohaga oid muammolarni yechimini topish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar xar xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish zveno ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholash;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo'yicha zamonaviy qurilmalardan foydalanish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash korxonasida texnologik jarayonlarni boshqarish
- dastlabki ishlangan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni samarali va resurs tejamkor faoliyatni tashkil etish.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, dastlabki qayta ishlash, qadoqlash, quritish, sensorik baholash, ilg'or texnologik jarayonlar, texnik vositalar, presslash, meva-sabzavot va uzum mahsulotlari, saqlangan va qayta ishlangan qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatini oshirish, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv rejasi va fan dasturi, o'quv jarayoni, loyiha-texnologik, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, baholash, sifat nazorati, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar itse'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

**Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorektori S. Islamov**

2022 yil « 22 » 08

M.O'.

KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq
etish markazi**

Direktor Sh.U. Yakubov

2022 yil « 29 » 08

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi
vazirining Qishloq xo'jaligida bilim va
innovatsiyalar tizimini rivojlantirish
boshqarmasi**

Boshlig'i Sh.B. Amanov

2022 yil « 26 » 08

M.O'.

**Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti**

Rektor K. Komilov

2022 yil « 25 » 08

M.O'.

"G'alla-ALTEG" AJ

Rais A.A. Kadirov

2022 yil « 25 » 08

M.O'.